

TURKISTON JADIDLARINING TA'LIM ISLOHOTLARI

Bozorova Marjona Hamid qizi

BuxDPI 1-bosqich magistranti

Telefon raqam : +998883013637

Elektron pochta: marjonajahongir211@gmail.com

Isoqova Mohigul Muxtor qizi

BuxDPI 1- bosqich magistranti

Telefon raqam: +998907113016

Elektron pochta: mohigulisoqova527@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston jadidchiligining XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida shakllangan ijtimoiy-siyosiy va madaniy harakati, uning asosiy maqsadi- Turkiston xalqlarining ijtimoiy-ma'naviy hayotini o'zgartirish, madaniyat va ta'limni rivojlantirish maqsadidagi islohotlari haqida, xususan, yangi usul maktablarini tashkil qilish orqali ta'lim tizimi isloh qilinganligi va bu islohotlar jamiyatning taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etganligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: jadidlarning ta'lim islohotlar, yangi usul, ayollar ta'limi, matbuot, ma'rifat, “Oyna”, “Turon”, “Sho'roi Islom”

Аннотация: В данной статье рассматривается общественно-политическое и культурное движение туркестанского модернизма, сформировавшееся в конце XIX – начале XX века, его основная цель – реформы, направленные на изменение социальной и духовной жизни народа Туркестана. Развивая культуру и образование, в частности, считалось, что система образования была реформирована путем создания методических школ и что эти реформы имели большое значение в развитии общества.

Ключевые слова: современное образование, реформы, новый метод, женское образование, пресса, просвещение, «Ойна», «Туран», «Шурай Ислам».

Abstract: This article discusses the socio-political and cultural movement of Turkestan Jadidism, which was formed in the late 19th and early 20th centuries, its main goal - to change the socio-spiritual life of the peoples of Turkestan, to develop culture and education, in particular, the reform of the education system through the organization of new method schools and the great importance of these reforms in the development of society.

Keywords: Jadid educational reforms, new method, women's education, press, enlightenment, "Oyna", "Turon", "Sho'roi Islam"

Shiddat bilan tarraqqiy etayotgan bir davrda jadidlar hayoti va faoliyatini oʻrganishga Jahonda, jumladan, Myunster universiteti (Myunster, Germaniya), Mayns universiteti (Mayns, Germaniya), Humboldt universiteti (Berlin, Germaniya), Tokio universiteti (Tokio, Yaponiya), Istanbul universiteti (Istanbul, Turkiya)da, Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi, mintaqada sovet hokimiyatining oʻrnatilishi, yangi boshqaruv tartiblarining joriy etilishi, jadidlar tomonidan siyosiy tashkilotlarning tuzilishi, Turkiston jadidlarining qatagʻon qilinishi, muhojirlikka ketishi va ularning xorijdagi faoliyati masalalariga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Turkiya, Misr, Eron, Hindiston, Afgʻoniston olimlari ham jadidlar faoliyatini oʻrganib kelmoqdalar. Bu esa butun dunyoda jadidlar faoliyatini oʻrganish dolzarb masala ekanligini isboti hisoblanadi.

Turkiyada ham jadidchilik tarixi masalalari keng tadqiq qilinayotgan mavzulardan boʻlib, Ali Bodomchi¹, Ahad Andijon² kabilar Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi, yangi usul maktablarining tashkil etilishi, xorijga muhojirlikda boʻlgan taraqqiyparvarlar hayoti va faoliyatini oʻrgandilar.

Ahad Andijan 1951-yil 1-aprelda Afgʻonistonda tugʻilgan turk shifokori, siyosatchi va yozuvchisi. “Turkiston uchun kurash” asarida turk davlatida jadidchilik harakati haqida maʼlumotlar berilgan. Bu asarni oʻzbek tiliga Tohir Qahhor tarjima qilgan. Turkiston tarixi bilan bogʻliq bir qancha asarlari muallifi boʻlgan Ali Bodomchi 1949 yil 1-martda Hatay Shenkoyda (Sheyhko'y) tugʻilgan. "Turkiston milliy istiqlol harakati va Anvar Posho". Kitob arxiv hujjatlari asosida tuzilgan boʻlib, 1917 - 1934-yillarni qamrab olib, Turkistondagi milliy istiqlol harakatini oʻrganadi.

Jadidlar faoliyati haqida Oʻzbekistonda ham juda koʻp ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Turkiston jadidlari haqida, xususan Mahmudxoʻja Behbudiy faoliyati, ilmiy asarlari xususida bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib borishdi va tarixiy manbaalar asosida asarlar yozishgan. Bularga misol sifatida quydagilarni ayta olamiz: D.A Alimova hamda D.A Rashidovalar “Mahmudxoʻja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri” nomli risola chop qilishgan. Maktablarda Adabiyot darsliklarida ham M.Behbudiy hayoti va ijodi keng oʻrganiladi. Tojikistonda R.Xodizoda, Germaniyada I.Baldauf³, AQSHda E.Olvort⁴ Behbudiy hayoti va ijodi boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. Bundan 94 yil muqaddam 1926-yili shaqrshunos Laziz Azizzoda⁵ Behbudiy

¹ Ali Bademci. 1917- 1934. Türkistan Milli İstiklal Hareketi. Korbaşılar ve Enver Paşa (1 – 2-cilt). İstanbul, 2008; Turkistonda Enver Paşanın Umum Muhaberesi Muoluu Molba Nasıfını Hatıraları. Sarıllı Basmacı. İstanbul. 2010;

² Andican A. Turkestan Struggle Abroad from Jadidism to Independence. Haarlem: Sota, 2007; Ahad Andijon. Turkiston uchun kurash. Tohir Qahhor tarjiması. Toshkent: “Tafakkur”, 2017;

³ Ingeborg Baldauf. XX-asr oʻzbek adabiyotiga chizgilar.. –T.:Maʼnaviyat, 2001

⁴ Allworth E. Central Asia. A Century of Russian rule. New York-London: Columbia University Press, 1967; : Central Asia: 130 Years of Russian Dominance. A Historical Overview. 3rd ed., Durham & London: Duke University Press, 1994

⁵ Azizzoda L. Behbudiy- Maorif va oʻqituvchi. 1926.No2.

to'g'risida fikr bildirib quyidagini yozadi: “Agar O'zbekistonda Navoiy va Ulug'bekdan boshqa uchinchi bir ilm va madaniyat arbobiga haykal qo'yiladigan bo'lsa, shubhasiz bu Behbudiyning haykali bo'lg'usidir”.

Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon asarlaridagi ma'naviy-ma'rifiy qarashlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotganicha yo'q. Buyuk ma'rifatparvar ziyolilarning g'oyalari milliy g'oya va istiqlol mafkurasining teran tomirlari bo'lib qolaveradi. Jadidlar jamiyatni isloh qilish, xalqni ma'rifatli qilish, milliy o'zlikni anglash g'oyalarini ilgari surgan. Ular o'sha davrdagi ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, jamiyatni taraqqiy ettirishni o'z oldiga maqsad qilgan edilar.

Bu kabi maqsadlarga erishish uchun esa ta'lim sohasida bir qancha islohotlar amalga oshirishdi. Bu islohatlar nafaqat ta'lim rivojlanishida, balki jamiyat taraqqiyotida ham muhim ahamiyat kasb etdi. Bugungi kunda ham bu islohotlardan bir qanchasi o'z ahamiyatlik darajasini yo'qotmagan. Ularga misol sifatida quyidagilarni ayta olamiz.

Jamiyatda ilm-fanning o'rni kuchayishi

Yangi usul maktablarida o'quvchilarga dunyoviy fanlardan dars berilishi ilm-fanga bo'lgan qiziqishni oshirdi. Matematikadan geografiyaga, tarixdan tabiatshunoslikka qadar keng qamrovli bilimlar yoshlar orasida tarqaldi. Bu esa Turkiston jamiyatining yangi avlodlarini ilmiy yutuqlarga erishishga undadi.

1. Madaniyat va ma'rifatning rivojlanishi Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari orqali savodxonlik darajasi sezilarli darajada oshdi. Bu maktablarda nafaqat an'anaviy diniy ta'lim berildi, balki dunyoviy fanlar ham o'qitildi. Ushbu yondashuv yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirishga va ularni zamonaviy ilm-fan bilan tanishtirishga yordam berdi. Jadidlar nafaqat bilim berish, balki milliy o'zlikni shakllantirish maqsadida ham faoliyat yuritdilar.

2. Milliy o'zlik va uyg'onishning shakllanishi. Jadidlar ta'lim islohotlari orqali Turkiston xalqlarida milliy ong va o'zlikni anglash tuyg'usini uyg'otdilar. Ularning darslik va asarlarida mahalliy til, tarix va madaniyatga katta e'tibor qaratildi. Bu esa jamiyatning milliy o'ziga xosligini asrashga xizmat qildi. Ayniqsa, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi jadidlar tomonidan yozilgan darsliklar milliy ruhni tarbiyalashda muhim o'rin tutdi.

Islohotlarning natijalari va ahamiyati

Turkiston jadidlarining ta'lim sohasidagi islohotlari mahalliy jamiyatning madaniy, ijtimoiy va ma'naviy hayotida chuqur iz qoldirdi. Bu islohotlar quyidagi bir qator natijalar va ahamiyatlarga ega edi:

Yangi usul maktablarining tashkil etilishi. Jadidlar eski maktab va madrasa tizimlarining samarasizligi va zamonaviy talablariga javob bera olmasligini ta'kidlab, yangi usul maktablarini tashkil etishga kirishdilar. Bu maktablarda ta'lim usuli sifatida

fonetika asosida o‘qitish (ya’ni harflarni tovush asosida o‘rgatish) joriy qilindi. Bu usul o‘quvchilarga qisqa vaqt ichida o‘qishni va yozishni o‘rganishga imkon berdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori va boshqa jadidlar bu jarayonning boshida turdilar. Bundan tashqari jadidlar maktablardagi ta’lim mazmunida ham bir qator o‘zgarishlar qilishdi. Bularga misol sifatida quydagilarni ayta olamiz:

1. **Ta’lim mazmunini yangilash.** XX asrning dastlabki 10-15 yilida Turkistonda yangi —usuli jadid yoki —usuli savtiya maktablari ochildi, milliy matbuot va teatrlar tashkil etildi. Turli uyushmalar, harakatlar va xayriya jamiyatlari shakllandi. Jadidlarning xalqning milliy uyg‘onishi, mustaqillik uchun kurash g‘oyalarining shakllanishida, shuningdek, uning madaniy-ma’rifiy qarashlarini boyitishda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulhamid Cho‘lpon, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev kabi taniqli kishilarning faoliyati katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston xalqlari orasida ilm-ma’rifatni rivojlantirish ularning milliy-davlat manfaatlarini himoya qilish uchun zarur, degan fikrga keladi. Agar bunday qarashlar debochasini XIX asrda Ahmad Donish kabi ma’rifatparvarlar boshlab bergan bo‘lsa, ularning g‘oya va qarashlarini Sadridin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Mirkomil Burxonov, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev, Xolidxoji Mehri, Mulla Vafo, Abdurauf Fitrat kabi millatparvar ziyolilar rivojlantirdi. Jadidlar ta’lim mazmunini boyitish uchun dunyoviy fanlar – geografiya, matematika, tarix va tabiatshunoslik kabi fanlarni o‘quv dasturlariga kiritdilar. Shuningdek, ular arab yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini isloh qilib, uni o‘quvchilarga osonroq bo‘lishi uchun moslashtirdilar.

2. **Ayollar ta’limiga ham e’tibor qaratildi.** Ma’rifatparvarlarimiz cheklanib qolgan ayollarimizning huquqlarini tiklab, millat kelajagi aynan ayollarni savodli qilish ekanligini tushunib yetishgan va ularni bilimli qilishga kirishishgan hatto, chet davlatlarida o‘qib, yanada yaxshi mutaxassis bo‘lishlarini ta’minlashgan, ular uchun alohida maktablarni tashkil qildilar. Bu jamiyatda ayollarning rolini oshirishga va ularning faolligini ta’minlashga qaratilgan qadam edi. Turkistonda mahalliy matbuotning rivojlanishida eng muhim rol o‘ynadi. Qrim tatar ma’rifatparvari Ismoil Gaspirinskiy ham 1906 yilda birinchi ayollar jurnali “Alem-i Nisvan” (Ayollar dunyosi)ni tashkil qiladi va qizi Shefika Xonimni unga muharrir etib belgilaydi. idaparastlikka singdirilgan deb gumon qilganlar. Jadid ziyolilari, ayniqsa, o‘zlarining nutqlarida va faoliyatida musulmon ayollarni ozod qilishga e’tibor qaratdilar, chunki ular gender tengligi va ozodliksiz ularning yangilanish harakati muvaffaqiyatli bo‘lmasligini tushunishadi. Bu harakat 1913 yilda Ozarbayjonning Boku shahrida istiqbolchilarning quyidagi maqolasi mahalliy jurnallardan birida o‘z aksini topgan: “Kimki o‘z xalqini sevsa va uning kelajagi buyuk bo‘lishini istasa, o‘z ayollarining ma’rifati va tarbiyasi haqida o‘ylashi, ozodlik va mustaqillikni tiklashi kerak. Ularning aqli va qobiliyatlarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratishi kerak” deb yozadi.

Ma’rifatparning bu chaqirig‘i 1913- yilda Qrimdagi “Tercüman/Perevodchik” (Tarjumon) gazetasida Hariye Hanim Machabilining muharrirga yo‘llagan maktubida yanada ochiqroq o‘z aksini topgan: “Bizning huquqlarimiz Qur’onda va payg‘ambarning so‘zlarida aniq belgilab berilgan. Lekin sizlar (erkaklar), din nomidan bizga zulm qilyapsizlar, shariat (islom qonuni) nomi bilan bizni halok qilyapsizlar. Buning uchun kim azob chekadi va yutqazadi? Yana siz (erkaklar) bo‘lasiz”. Adib Xolid o‘zining Turkistondagi musulmon istiqloqlolchilik (jadidchilik) siyosatiga oid mukammal tadqiqotida sovet tuzumidan oldingi davrda jadidlar yozgan asosiy yo‘nalishni quyidagicha e’tirof etadi. Jadidlar ayollarga nisbatan katta hamdardlik va o‘z mavqeini yaxshilash uchun ajralib turadi.

3. **Matbuot va kitob chop etish orqali islohotlarni targ‘ib qilish.** Jadid ziyolilari uchun eski usuldagi maktablarni isloh etish, badiiy adabiyotni yangi o‘zanga solish, teatr sahnasini ibratxonaga aylantirish naqadar muhim bo‘lsa, milliy matbuot tashkili va taraqqiysi ham shu darajada ahamiyatli edi. Jadidlar zamonida matbuotdagi haq so‘zning kundalik hayotga, odamlarga, jamiyatga ta’siri kuchli bo‘ldi. Vaqtli matbuot odamlarning ijtimoiy hayotiga faol aralashmog‘i va dunyodan boxabar bo‘lmog‘i uchun zaruratga aylandi. Boshlab gazetalar oyda bir bora bazo‘r chiqdi; asta-asta haftalik va kunlik nashrlar shiddat bilan odamlar orasiga kirib bordi; sahifalaridagi maqola va ma’lumotlar ma’naviy ehtiyoj tusini oldi. Jadidlar tomonidan gazeta va jurnallar nashr etilib, ta’lim islohotlari targ‘ib qilindi. "Oyna", "Turon" va boshqa nashrlar orqali jamiyatni ma’rifatli qilishga urinishdi. Shuningdek, ular tomonidan darsliklar va ilmiy-ma’rifiy kitoblar yozildi. Abdulhamid Cho‘lpon 1913 yili Ismoil Gaspinskiyga yozgan maktubida «Shalola», «Turk yurdi», «Shahbal», «Tarjimon», «Vaqt» va «Iqbol» kabi jadid qardoshlarning gazeta va jurnallarini yodga oladi, ularni o‘qib borayotganini aytadi. Shundan keyin Munavvar Qorining «**Xurshid**» (1906 yil sentabr), Abdulla Avloniyning «**Shuhrat**» (1907 yil dekbar) gazetalar nashr bo‘ladi. Biroq bu gazetalar faoliyati ham uzoqqa cho‘zilmaydi. O‘z g‘oyalari, maslamlari targ‘ibi uchun naqadar foydali ekanini chuqur anglagan jadidlar gazetachilik jabhasida sa’y-u harakatdan to‘xtamadi. «**Tujjor**», «**Osiyo**», «**Samarqand**», «**Sadoi Turkiston**», «**Sadoi Farg‘ona**», «**Tirik so‘z**» kabi gazetalar yonida Mahmudxo‘ja Behbudiyning «**Oyina**» jurnali paydo bo‘ldi. 1913-1915 yillarda 68 soni bosildi.

Umumiy xulosalar

Jadidlar tomonidan amalga oshirilgan ta’lim islohotlari Turkiston xalqlari hayotida katta burilish yasadi. Ularning faoliyati natijasida jamiyat yangi bilim va tajribalarni o‘zlashtirishga intildi. Bu harakat eski ta’lim tizimining samarasizligini bartaraf etib, yangi, zamonaviy va samarador ta’lim asoslarini yaratdi. Jadidlar faqatgina savodxonlik darajasini oshirish bilan cheklanib qolmasdan, milliy ruhni kuchaytirish, jamiyatni madaniy va ma’naviy jihatdan yangilashga ham katta e’tibor qaratdilar.

Ushbu islohotlar, bir tomondan, Turkiston xalqlarining mustamlaka zulmiga qarshi milliy ongini oshirishga xizmat qilgan bo‘lsa, boshqa tomondan, ularni global rivojlanish jarayoniga moslashishga undadi. Xususan, yangi usul maktablarida joriy etilgan zamonaviy fanlar va ta’lim metodikasi, matbuot va ommaviy ma’rifat vositalari orqali targ‘ib etilgan bilimlar jamiyatda intellektual o‘shishga sabab bo‘ldi.

Jadidlar faqat erkaklar uchun emas, balki ayollar uchun ham ta’lim olish imkoniyatlarini yaratdilar. Bu esa gender tengligini ta’minlash yo‘lidagi birinchi qadam edi. Ayollarning ta’lim olishi natijasida jamiyatda oila va madaniyat sohasida katta o‘zgarishlar yuz berdi.

Biroq, jadidlarning faoliyati mustamlakachilik siyosatiga qarama-qarshi kelgani sababli, ular turli tazyiqlarga uchradi. Chor hukumati va keyinchalik sovet hokimiyati ularning ta’lim sohasidagi faoliyatini cheklashga harakat qildi. Shunga qaramay, jadidlarning tashabbuslari va fidoyiliklari Turkiston xalqlarining ma’rifatparvarlik ruhini yuksaltirishga ulkan hissa qo‘shdi.

Bugungi kunda jadidlar tomonidan boshlangan ta’lim islohotlarining ahamiyati o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ularning faoliyati nafaqat tarixiy meros sifatida, balki zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirishda ham ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Turkiston jadidlarining orzusi bo‘lgan savodli, bilimli va madaniyatli jamiyatni yaratish harakati hozirgi davrda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, jadidlarning merosini o‘rganish va ulardan ilhom olish xalqimizning ma’naviy yuksalishida katta ahamiyatga ega.

Ularning ta’lim sohasidagi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, jamiyatni rivojlantirish va yangilashning eng samarali yo‘li – ta’lim va bilimdir. Jadidlarning bu tamoyiliga amal qilish hozirgi va kelajak avlodlar uchun ham muvaffaqiyatli taraqqiyot yo‘lini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахмонов, Х. **"Жадидлар таълими ва унинг таъсири"**. Тошкент: Фан нашриёти, 2005.
2. Каримов, А. **"Туркистонда жадидчилик ҳаракати"**. Самарқанд: Самарқанд университети нашриёти, 2010.
3. Бехбудий, Маҳмудхўжа. **"Туркистоннинг тартиб-ислохи"**. Тошкент: Туркистон нашриёти, 1914.
4. Devon, T. **"Reform and Modernity in Central Asia: Jadidism and Its Legacy"**. New York: Columbia University Press, 2017.
5. Khalid, A. **"The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia"**. Berkeley: University of California Press, 1998.
6. Мамажонов, У. **"Туркистон жадидларининг маърифатчилик ҳаракати"**. Тошкент: Шарқ, 2002.